

## MAXSUS PEDAGOGIKANING DOLZARB MUAMMOLARI

Soatov Nodirbek Orifovich

*Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti. Maxsus pedagogika va inkulziv ta'lim fakulteti, Oligofrenopedagogika yo'nalishi kechki 201-guruh talabasi.*

**Annotatsiya:** *Bu maqolada maxsus pedagogika sohasini rivojlantirish uchun eng avvalo pedagoglarni to'g'ri tanlash, ularni to'g'ri shakllantirish va mahoratlarini oshirish kerakligi haqida fikrlar bayon etilgan. Bolalardagi nuqsonlarni bartaraf etish uchun eng avvalo pedagog kuchli bilimga ega bo'lsa kutilgan ijobiy natijalarga erishish imkoniyati shunchalik oshadi.*

**Kalit So'zlar:** *Maxsus pedagogika, maxsus maktab, pedagog, tarbiyachi, korreksion pedagogika.*

Jamiyatimizga turli sohadagi o'zgarishlar shiddat bilan kirib kelmoqda. Bunday o'zgarishlar natijasida ayrim yo'nalishlarda rivojlanishlar ro'y berayotgan bo'lsa-da, yana qaysidir yo'nalishlar zarar ko'rmoqda. Iqlim o'zgarishi, ekologik muammolar, jamiyatimizdagi zararli illatlar natijasida jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning tug'ilishi mana shunday salbiy oqibalardan biridir. "Umumjahon sog'liqni ekologik saqlash tashkiloti ma'lumotlari dunyoda bunday kishilar soni 13% ga yaqinligidan dalolat beradi. Shundan 3% i, intellektida kamchiligi bo'lgan bolalar, 10% I turli ruhiy va jismoniy nuqsonga ega bolalardir.

Mustaqil O'zbekiston Knstitutsiyasida belgilab qo'yilganidek "Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi.

Maktab ishlari davlat nazoratidadir".

Mana shunday qonunlar asosida va albatta insonparvar siyosatimiz natijasida mamlakatimizda alohida yordamga muhtoj bolalar uchun maxsus ta'lim-tarbiya maskanlari, ya'ni maxsus maktabgacha ta'lim muassasalari va maxsus maktabalar o'z ish faoliyatini yurgizib kelmoqdalar. Maxsus ta'lim muassasalarida alohida yordamga muhtoj bolalarga maxsus yondashuvlar asosida ta'lim-tarbiya beriladi. Bolalarni to'g'ri shakllantirishni samarali malga oshirish uchun har bitta bolaning yosh xususiyatlarini, ular psixologiyasini chuqur o'rganish talab qilinadi. Mana shunday bilimlarni maxsus pedagogika, korreksion pedagogika va maxsus psixologiya kabi fanlar yordamida o'rganishimiz mumkin.

Hozirgi kunda O'zbekistobda Korreksion pedagogika- alohida yordamga muhtoj jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida kamchiliklari bor bolalarning psixofiziologik rivojlanishidagi xususiyatlarini o'rganadigan, ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'illanadigan fandır. Korreksion pedagogika so'zi lotincha - tuzatish, bartaraf etish, pedagogika-ta'lim-tarbiya, o'rganish degan so'zlardan olingan".

"Korreksion pedagogika nisbatan yangi fan. U asosan XIX asrning o'rtalarida rivojlana boshladi. 1925-yilda Moskva shahrida Eksperimental defektologiya institute tashkil etildi. Bu institutni buyuk psixolog professor L.S.Vigotskiy boshqardi.

L.S.Vigotskiy anomal bolalar rivojlanishdagi xususiyatlarni o'rganib, nuqsonning murakkab tuzilishi haqidagi ta'limotni ishlab chiqdi".

Maxsus pedagogika va korreksion pedagogika nomlari bir xil ma'noni anglatadi.

Oradan yillar o'tib "Korreksion pedagogika fanining rivojlanishi natijasida undan quyidagi tarmoqlar mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi:

-Surdopedagogika (lotincha surdus-kar, gung so'zidan olingan) eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim-tarbiyasi bilan shu'illanadigan fan;

-Tiflopedagogika (yunoncha tiflos-ko'r, so'qir so'zidan olingan)- ko'zi ojiz bolalarning ta'lim-tarbiyasi bilan

shu'illanadigan fan;

- Oligofrenopedagogika (yunoncha oligoskam, fren-aql so'zlaridan olindan)- aqliy tomondan zaif bolalarning ta'lim-tarbiyasi bilan shu'illanadigan fan; -Logopediya (yunoncha logos- so'z, padeotariya so'zlaridan olingan)- og'ir nutq nuqsonlarini o'rganish, oldini olish, bartaraf etish yo'llari, usullarini o'rganadigan fan;

Hozirgi kunda har bir yo'nalishga alohida e'tibor qaratilgan, har bir yo'nalishda alohida maktablar o'z ish faoliyatini olib bormoqda. Asosiy maqsad esa alohida yordamga muhtoj bolalarga ta'lim berish, ulardagi nuqsonlarni korreksiyalash, ularni jamiyatga qo'shish va jamiyatda o'z o'rinlariga ega bo'lishlariga ko'maklashish. Albatta bularning barchasini amalga oshirish yo'lida pedagoglarning o'rni kata. Pedagog qanchalik mahoratli va bilimli bo'lsa ijobiy natijalarni qo'lga kiritish, ularga erishish mumkin. Mamlakatimizning bir nechta oliy ta'lim muassasalarida maxsus pedagogikaning bir nechta yo'nalishlari bo'yicha talabalarga ta'lim beriladi va oliy ma'lumotli maxsus pedagoglar yetishib chiqadi. Bu sohaga bo'lgan talabning kundan kunga oshib borayotganligi sababli bu yo'nalishlarda o'qishni istovchi yoshlar soni ham ko'paymoqda. Ammo bu soha murakkabligi, o'ziga xos qiyinchiliklari borligi sababli hamma ham haqiqiy mutaxassis bo'lib chiqolmaydi. Ya'ni sog'lom bolalar ta'lim oladigan an'anaviy maktablardagi boshlang'ich sinf o'quvchilarini ko'z oldingizga keltiring, ularni darsda ushlab turish uchun pedagogdan qanchalik sabr, matonat va kuch talab qilinadi. Bolalarni darsga qiziqtirish uchun u qancha harakat qiladi. Mana endi maxsus maktablarni ko'z oldingizga keltiring, ularda ta'lim oluvchi bolalarda jismoniy va aqliy nuqsonlar mavjud. Sog'lom bolalardan 5 tasiga ketadigan kuchingiz va e'tiboringizni siz bu yerda 1 ta bolaga qaratishingizga to'g'ri keladi. Shunday qiyinchiliklarni hisobga olib maxsus maktablarda har bir sinfda bolalar rivojlanishiga qarab guruhlarga ajratgan holda 3-4 tada 11-12 tagacha bolalar o'qitiladi. Guruhlarga bo'lish kar va zaif eshituvchi bolalar ta'lim oladigan maktablarda quyidagicha amalga oshiriladi. Ularni guruhlarga bo'lish asosan keng tarqalgan tasniflardan biri L.N.Neyman tomonidan ishlab chiqilgan tasnif asosida amalga oshiriladi.

#### UNGA KO'RA:

1-guruh: eng past 125-250 Gs chastotalarni idrok etadigan bolalar. Bunday bolalar qandaydir nutq tovushlarini farqlamaydi va qulog'I yaqinida aytilgan juda baland tovushlarga yoki yaqin masofadan turib berilgan intensive tovushlarga (baqiriq va sh.k) reaksiya qiladi.

2-guruh: 125-500 Gs chastotani idrok etadigan bolalar. Bu guruh bollar qulog'I yaqinid aytilgan baland tovushlarga reaksiya qiladi, "O" va "U" unllilarini farqlaydi. Boshqa juda baland tovushlarni idrok etishga qodir.

3-guruh: past va o'rta chastotalar, 1251000 Gs gacha diapozondagi tovushlarni idrok etadigan bolalar.

4-guruh: 125-2000 Gs chastotani idrok etadigan bolalar.

3- va 4- guruhga mansub bolalar yaqin masofadan turib kamroq intensive va chastotasiga ko'ra turlicha tovushlarni (musiqa asboblari tovushi, maishiy tovushlar-eshik qo'ng'irog'i, telefon qo'ng'irog'i va shk) idrok etadi" [6]. Maxsus pedagoglarni to'g'ri shakllantirish uchun ularni uzluksiz rivojlantirishga va ularning bilim darajalarini, tajribalarini nazorat qilib turish kerak deb o'ylayman. Chunki o'zim ham mana shu sohada ta'lim olish jarayonida maxsus pedagogika qanday fanligini bilmasdan yoki maxsus pedagog kimligini tushunmasdan, shunchaki birovlar taklifi bilan o'qishga topshirgan yoshlarni, hechqanday qiziqishsiz tehsil olayotgan talabalarni ko'rdim. Bizning yo'nalish logopediya, ya'ni asosan bolalar bilan ishlaymiz. Biz bolalarni oldiga borganda ularga ta'imtarbiya berish bilan bir qatorda ulrdagi nuqsonlarni bartaraf etishimiz, ularga mehrlil bo'lishimiz zarur. Endi o'ylab ko'ringchi qiziqishi bo'lmaga, bolalarni sevmagan pedagog bu ishni qanday amalga oshiradi. Inson o'z kasbini sevmasa qancha urinmasin kasbining ustasi bo'la olmaydi, qancha o'qib o'rganmasin bilganlarini bolalarga tusuntira olmaydi. Yana shuni ham aytish kerakki pedagog har tomonlama o'quvchilarga o'rnak bo'la olishi muhimdir. O'zingiz bilmagan narsani bolalardan talab qilaolmaysiz, o'zingiz amal qilmaydigan qoidalarga bolalarni o'rgatolmaysiz. Shuning uchun ham maxsus pedagogika sohasida ta'lim olayotgan talabalar bilmini tekshirib turish, ular psixologiyasini o'rganib turish lozim. Ertaga to'g'ri shakllanmagan pedagog oldiga bolalarni topshirib qo'ygandan ko'ra hozirdan ularni o'z qiziqishlari bo'yicha yo'naltirgan, ularga to'g'ri kelmaydigan sohalarni aytish zarur deb o'ylayman. Chunki bu soha nuqsonli bolalarga yordam beruvchi sohadir. Nuqsonli bolalar oldiga nuqsonli pedagog boradigan bo'lsa natija qanday bo'lishini tasavvur qilavering. Xulosa qilib aytmoqchimanki maxsus ta'lim muassasalari tarbiyachi va o'qtuvchilarini to'g'ri o'qitish, ularni to'g'ri shakllantirish mana shu sohani rivojlantirib, ijobiy natijaga erishish yo'lidagi ilk qadamdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. M.U.Xamidova Toshkent-2018 "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2018 "Maxsus pedagogika" 4-6-bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi .T.: "O'zbekiston" nashriyoti-matbaa ijodiy uyi 2008-y, 9-bet 41-modda
3. V.S.Raxmanova "Korreksion pedagogika va logopediya" oliy 'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma / O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi .T.: "IQTISODMOLIYA" -2017y 7-8-betlar
4. p.f.n, dots R.M Medetovaning "korreksion faoliyatning asosiy tamoyillari" mavzusidagi ochiq seminar matni
5. D.R.Babayeva "Nutq o'stirish nazariyasi" Toshkent-2018
6. Раҳмонов, М. (2023). ҲИС-ҲАЯЖОН ВА САЛОМАТЛИК. SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH, 2(15), 55-63.
7. Раҳмонов, М. (2021). СЎЗНИНГ САЛОМАТЛИККА ТАЪСИРИ. Scientific journal of the Fergana State University, (6), 42-42.
8. Uktamovna, M. M. (2023, October). ЕПИТЕТ ТАРИХИ ВА НАЗАРИЯСИГА БИР НАЗАР. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 127-132).

9. Uktamovna, M. M. (2023). O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA EPITETNING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI. OBRAZLI EPITETLAR. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 2(23), 439-444.
10. Mamadjanova, M. (2023). ESSENTIAL CHARACTERISTICS OF EPITHET. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(10), 89-91.
11. Uktamovna, M. M. (2022). EPITETNING LINGVISTIK TABIATI. IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(8), 26-30
12. Uktamovna, M. M. (2023). TRANSFERRED EPITHET IN ENGLISH LANGUAGE. Научный Фокус, 1(1), 921-924.